

SHAXS RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK BOSQICHLARI

Raximberdiyeva Mehriniso Xosilbek qizi

Ajiniyoz nomidagi NDPIning Pedagogika fakulteti

Psixologiya talim yonalishi 1-Zguruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15766878>

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxs rivojlanishining asosiy psixologik bosqichlari, har bir bosqichda yuzaga keladigan psixologik o'zgarishlar, shuningdek, mashhur psixologlar – E. Erikson, J. Piajening nazariyalari asosida yondashuvlar tahlil qilinadi. Maqola talabalarga va pedagogik amaliyotdagi mutaxassislarga shaxsni yaxlit tushunish uchun foydalidir.

Kalit so'zlar: shaxs, rivojlanish, psixologik bosqich, Erikson, Pijaje, bolalik, o'smirlilik, identitet.

Abstract. This article analyzes the main psychological stages of personality development, the psychological changes occurring at each stage, as well as approaches based on the theories of famous psychologists - E. Erikson, J. Piaget. The article is useful for students and specialists in pedagogical practice for a holistic understanding of personality.

Keywords: personality, development, psychological stage, Erikson, Piaget, childhood, adolescence, identity.

Аннотация. В данной статье анализируются основные психологические этапы развития личности, психологические изменения, происходящие на каждом этапе, а также подходы, основанные на теориях известных психологов - Э. Эрикссона, Ж. Пиаже. Статья полезна студентам и специалистам в педагогической практике для целостного понимания личности.

Ключевые слова: личность, развитие, психологический этап, Эриксон, Пиаже, детство, подростковый возраст, идентичность.

Inson — biologik mavjudot bo'lishi bilan birga, ijtimoiy-psixologik mavjudotdir. Uning shakllanishi, hayotga moslashuvi va o'z o'mini topishi uzlusiz psixologik rivojlanish natijasidir. Shaxs rivojlanishi psixologiya fanining eng muhim sohalaridan biri hisoblanadi, chunki har bir yosh bosqichida insonda yangi sifatlar shakllanadi va bu uning keyingi hayotiga ta'sir ko'rsatadi. Amerikalik psixoanalitik Erik Erikson shaxsning rivojlanish bosqichlarini sakkizta psixososial bosqichga ajratgan. Har bir bosqichda inson muayyan ichki muammoga duch keladi va bu muammoni muvaffaqiyatli hal qilishi yoki hal qila olmasligi uning keyingi rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Masalan, hayotining ilk yillarda bola o'z atrofdagilarga nisbatan ishonch yoki ishonchsizlik tuyg'usini shakllantiradi. Bu — 0 yoshdan 1 yoshgacha bo'lган davrga to'g'ri keladi. Agar bu davrda bolaning ehtiyojlari qondirilsa, unga mehr berilsa, u hayotga ishonch bilan qaraydi. Aks holda, ishonchsizlik shakllanadi. 1–3 yoshda esa mustaqillik yoki uyatchanlik hissi rivojlanadi. Bola o'z harakatlarida mustaqil bo'lishga intiladi. Agar ota-onalar bola harakatlarini rag'batlantirsalar, unda avtonomiya rivojlanadi, aks holda, uyat va shubha paydo bo'ladi. Inson — nafaqat biologik mavjudot, balki ijtimoiy-psixologik mavjudotdir. Uning shakllanishi, o'zini anglashi, jamiyatdagi o'rnini topishi uzlusiz psixologik rivojlanishning natijasidir. Psixologiyada shaxs rivojlanishiga oid yondashuvlar ko'p, ammo ularning barchasi inson hayoti davomida bosqichma-bosqich sodir bo'ladigan o'zgarishlarni

tushuntirib beradi. Shaxs rivojlanishi bolaning tug‘ilishidan to keksalikkacha bo‘lgan davrni qamrab oladi va bu jarayonda biologik, ijtimoiy va psixologik omillar o‘zaro ta’sirda bo‘ladi. Psixologlar ushbu rivojlanish jarayonini turli modellarda tasvirlashgan. 3–6 yosh oralig‘ida bola faol tashabbus ko‘rsata boshlaydi. Agar atrofdagilar uni qo‘llab-quvvatlasa, unda tashabbuskorlik kuchayadi. Aks holda esa aybdorlik hissi paydo bo‘ladi. 6–12 yoshda bolaning mehnatsevarlik hissi ortadi, u o‘zini foydali deb his qilishi muhim. Agar bola bu davrda o‘zini ojiz his qilsa, bu uni psixologik jihatdan past his qilishiga olib keladi. O‘smirlilik davri (12–18 yosh) esa identitet shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu bosqichda inson “Men kimman?” degan savolga javob izlaydi. Agar bu davr muvaffaqiyatli o‘tsa, shaxs o‘zini angelaydi, o‘z yo‘lini topadi. Aks holda esa rol chalkashuvi, ya’ni ichki ziddiyatlar yuzaga keladi. Shu o‘rinda shveysariyalik psixolog Jan Pijagening kognitiv rivojlanish nazariyasini ham eslab o‘tish lozim. Pijage bola aqliy rivojlanishini to‘rt bosqichda ko‘rsatadi. Tug‘ilganidan ikki yoshgacha bo‘lgan davr sensomotor bosqich bo‘lib, unda bola harakat va sezgilar orqali olamni o‘rganadi. Keyingi bosqich preoperatsional bosqich bo‘lib, 2–7 yoshni qamrab oladi. Bu davrda bola tasavvurga boy, ammo mantiqiy fikrlash hali rivojlanmagan bo‘ladi. 7–11 yosh oralig‘idagi konkret operatsiyalar bosqichida esa bola real faktlar asosida mantiqiy fikrlashni boshlaydi. 11 yoshdan boshlangan formal operatsiyalar bosqichida esa bola abstrakt tushunchalar bilan ishlay oladi, ya’ni nazariy fikrlash shakllanadi. Zamonaviy psixologiyada esa shaxs rivojlanishiga kompleks yondashuvlar mavjud. Masalan, V.S. Muxina shaxsning ijtimoiy xatti-harakatlarini, uning muhitga moslashuvi va jamoadagi o‘rnini tahlil qilsa, A.V. Petrovskiy shaxsni uch komponent: faollik, munosabatlar va o‘zini anglash orqali o‘rganadi. Shaxs rivojlanishida ijtimoiy muhit, oilaviy tarbiya, maktab, jamoadagi o‘zaro munosabatlar ham muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, bolalik va o‘smirlilik davrida berilgan ijtimoiy ta’sirlar insonning butun hayoti davomida namoyon bo‘ladi. Shaxs rivojlanishini chuqur o‘rganish orqali insonning o‘ziga xos xulq-atvori, ehtiyojlari, qiziqishlari, ijtimoiy roliga doir chuqur bilimga ega bo‘lish mumkin. Bu esa psixolog, pedagog, sotsiolog kabi kasb egalari uchun muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois shaxs rivojlanish bosqichlarini chuqur o‘rganish – kelajakda inson ruhiyatini tushunish va unga to‘g‘ri yondashishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shaxs — insonning jamiyatda muayyan ijtimoiy rolni bajaruvchi, o‘ziga xos aqliy, emotsiyonal va ijtimoiy-psixologik fazilatlarga ega bo‘lgan mavjudotidir. U tug‘ilishdan boshlab butun hayoti davomida rivojlanadi. Bu rivojlanish jarayoni muayyan bosqichlardan iborat bo‘lib, har bir bosqichda yangi psixik sifatlar shakllanadi, o‘zini anglash darajasi ortadi, tashqi olam bilan munosabatlar takomillashadi. Shu boisdan shaxs rivojlanishining psixologik bosqichlarini aniqlash va tahlil qilish psixologiya fanining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shaxs rivojlanishining psixologik tahlili qadimiyl falsafiy qarashlardan boshlab zamonaviy fan nuqtayi nazarigacha rivojlanib kelgan. Jumladan, Aristotel va Ibn Sino inson taraqqiyotini tabiiy bosqichlar asosida tahlil qilgan bo‘lsa, yangi davrda G. Spenser, S. Xoll, J. Lokk va I. Kant shaxsning o‘sishi va shakllanishini individual tajriba va ijtimoiy muhit bilan bog‘lashgan. XX asr psixologiyasida esa shaxs rivojlanishiga oid keng ko‘lamli nazariyalar paydo bo‘ldi. Ulardan eng mashhurlari — Erik Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasи va Jan Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasidir. Eriksonga ko‘ra, shaxs rivojlanishi sakkiz bosqichdan iborat bo‘lib, har bir bosqichda inson ma’lum psixososial inqiroz bilan duch keladi.

Bu inqirozlar muvaffaqiyatli yengib o'tilsa, insonning psixik holati va ijtimoiy moslashuvi yanada barqarorlashadi. Jumladan, 0–1 yoshda bola "ishonch – ishonchsizlik", 1–3 yoshda "mustaqillik – shubha", 3–6 yoshda "tashabbus – ayb hissi", 6–12 yoshda "mehnatsevarlik – pastlik", 12–18 yoshda "identitet – rol chalkashuvi", 18–30 yoshda "yaqinlik – izolyatsiya", 30–60 yoshda "produktuvlik – stagnatsiya", 60 yoshdan keyin esa "butunlik – umidsizlik" inqirozlarini boshdan kechiradi. Jan Pijage esa inson ongining rivojlanishini asosiy e'tiborga olgan. U kognitiv rivojlanishni to'rt bosqichga ajratgan: sensor-motor bosqich (0–2 yosh), preoperatsional bosqich (2–7 yosh), konkret operatsiyalar bosqichi (7–11 yosh), va formal operatsiyalar bosqichi (11 yoshdan keyin). Ushbu bosqichlarda bola tafakkur, til, mantiq, tushunish va muammo hal qilish qobiliyatlarini bosqichma-bosqich o'zlashtiradi. Rossiyalik olimlar — L.S. Vygotskiy, A.N. Leontyev va D.B. Elkoniinlarning nazariy qarashlari ham shaxs rivojlanishining psixologik asoslarini tahlil qilishda muhim o'rinn tutadi. Jumladan, Vygotskiy "yaqin rivojlanish zonasasi" tushunchasini ilgari surib, bolaning rivojlanishida atrof-muhit, ayniqsa, kattalar bilan o'zaro muloqot asosiy omil ekanligini asoslagan. Uning fikricha, bola o'z qibiliyatlarini faqatgina mustaqil emas, balki boshqalarning ko'magida ham rivojlantiradi. O'zbekistonlik psixolog olimlar, jumladan D.X. Xudoyberdiyeva va M.A. Norqulovlarning fikricha, shaxs rivojlanishining ijtimoiy-psixologik jihatlarini o'rganishda milliy qadriyatlar, tarbiya va oila muhiti alohida ahamiyatga ega. Ular bolalikda berilgan mehr-muhabbat, intizom, axloqiy qadriyatlar shaxsning psixik barqarorligiga katta ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar. Shaxs rivojlanishining psixologik bosqichlarini tahlil qilishda zamonaviy psixologiyada integrativ yondashuvlar ham mavjud. Ya'ni, biologik, ijtimoiy, emotsiyonal va aqliy omillar uyg'unligida inson taraqqiyoti baholanadi. Xususan, zamonaviy psixologlar shaxsning rivojlanishida emotsiyonal intellekt, muomala madaniyati, ijtimoiy moslashuv, va stressga bardoshlilik kabi omillarni ajratib ko'rsatmoqdalar. Shaxs rivojlanishi jarayoni faqat ijobiy yo'naliishda kechmaydi. Ayrim hollarda u turli ijtimoiy va psixologik muammolar — oilaviy muhit, yetarli ta'lif olish imkoniyatlarining yo'qligi, zo'ravonlik, e'tiborsizlik tufayli salbiy tomonga og'ishi mumkin. Shu boisdan ham bugungi kunda psixologlar, pedagoglar va ota-onalar shaxs rivojlanishining har bir bosqichida faol ishtirok etishi zarur. Xulosa qilib aytganda, shaxs rivojlanishi — bu inson hayotining barcha davrlarini o'z ichiga oluvchi, ijtimoiy, aqliy, emotsiyonal, ma'naviy va axloqiy rivojlanishning murakkab tizimidir. Har bir bosqich inson hayoti uchun tayanch bo'lib xizmat qiladi va keyingi bosqichlarning shakllanishiga zamin yaratadi. Ushbu bosqichlar psixologiya fanining nafaqat nazariy, balki amaliy sohasida ham dolzarb hisoblanadi. Bugungi kunda zamonaviy jamiyatga moslasha oladigan, o'zini anglagan va ijtimoiy javobgar shaxsni shakllantirish uchun uning rivojlanish bosqichlarini chuqur o'rganish va psixologik yondashuvlarni qo'llash nihoyatda muhimdir.

REFERENCES

1. A. Ananev. Chelovek kak predmet poznaniya. — M.: Nauka, 2001.
2. Xudoyberdiyeva, D.X. Umumiy psixologiya. — Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020.
3. Erikson, E. Identity: Youth and Crisis. — New York: Norton, 1968.
4. Piaget, J. The Psychology of the Child. — New York: Basic Books, 1969.
5. Muxina, V.S. Psixologiya razvitiya. — Moskva: Prosveshcheniye, 2018